

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KORXONALAR SOLIQ HISOBI VA TAHLILINI AVTOMATLASHTIRISH MUAMMOLARI

Rahimbayev Sirojiddin Jamoladdin o'g'li

Magistr, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Fiskal institut.

Tel: +998335707272, E-mail: rahimbayev.sirojiddin@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarining soliq hisobi va tahlilini avtomatlashtirish borasidagi korxonalar oldida turgan dolzarb muammolar va ularning yechimlari bo'yicha fikr va mulohazalar keltirib o'tilgan. Soliq hisobi va tahlil jarayonlarini avtomatlashtirilishi boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asoslangan ishonchli ma'lumotlarni yetkazib berishda qanchalik ahamiyatli ekanligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: soliq hisobi, tahlil, raqamli iqtisodiyot, boshqaruv qarorlarini qabul qilish, tahlil axborot manbalari, ishonchlilik va shaffoflik, soliq hisobini avtomatlashtirish.

Аннотация: В данной статье представлены мысли и мнения по актуальным проблемам, стоящим перед предприятиями, и пути их решения в части автоматизации расчета и анализа налогов предприятий в условиях цифровой экономики. Подчеркнуто, насколько важна автоматизация процессов налогового учета и анализа в предоставлении достоверной информации, на основе которой принимаются управленческие решения.

Ключевые слова: налоговый учет, анализ, цифровая экономика, принятие управленческих решений, источники аналитической информации, надежность и прозрачность, автоматизация налогового учета.

Abstract: This article presents thoughts and opinions on current problems facing enterprises and ways to solve them in terms of automating the calculation and analysis of enterprise taxes in the digital economy. It is emphasized how important automation of tax

accounting and analysis processes is in providing reliable information on the basis of which management decisions are made.

Key words: tax accounting, analysis, digital economy, management decision-making, sources of analytical information, reliability and transparency, automation of tax accounting.

Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash sharoitida korxonalar va tashkilotlarning daromad va xarajatlarini doimiy tahlil qilib borish, korxonalar to'g'risidagi ma'lumotlarni iqtisodiy hamda mantiqiy jihatdan bir-biriga uyg'unligini nazorat qilish muammoli vazifa bo'lib hisoblanadi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining turli-tumanligi, faoliyat turlarining o'ziga xosligi, tarmoqlar bo'yicha turli imtiyozlarning mavjudligi, turli soliqqa tortish tizimlarining amal qilishi mazkur muammolarga sabab bo'luvchi omillardan hisoblanadi. Korxonalarining soliq hisobi va tahlilini amalga oshirish natijasida ham korxonaning moliyaviy holatlarini uzluksiz baholash imkoniyatlari mavjud. To'langan soliq miqdoriga qarab korxonalar moliyaviy ahvolini baholash qiyin bo'lishi mumkin, chunki to'langan soliqlar qiymati korxonaning moliyaviy holatiga ta'sir qiluvchi ko'plab omillardan biri hisoblanadi. Biroq, to'langan soliq miqdori soliq to'lovchining faoliyati va moliyaviy ahvoli haqidagi asosiy ma'lumotlarni bilvosita tarzda ifodalashi mumkin.

To'langan soliq miqdoridan kelib chiqqan holda korxonaning moliyaviy ahvolini baholashda quyidagi omillarni inobatga olmaslikning iloji yo'q:

- **Daromad:** Soliq to'lovlar miqdorining yuqori qiymatlari korxonalar daromadi darajasi yuqori ekanligini anglatadi. Biroq, bu mutlaqo to'g'ri deb bo'lmaydi, chunki to'langan soliq miqdorlari soliq stavkalari, soliq imtiyozlari va turli chegirmalarga qarab o'zgarishi mumkin.

- **Rentabellik:** Agar soliq solish bazasi foyda bo'lsa, yuqori soliq to'lovlari tashkilot faoliyatining yuqori rentabellik bilan ishlayotganligidan dalolat beradi.

- **Moliyaviy intizom:** Soliq to'lovlarining yuqori bo'lishi va o'z vaqtida to'lanishi moliyaviy intizom va soliq to'lovchining moliyaviy majburiyatlarini boshqarish qobiliyatiga ega ekanligidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, moliyaviy holatni to'liq baholash uchun aktivlar, majburiyatlar, joriy likvidlik, rentabellik koeffitsiyentlari, uzoq muddatli rejalar va strategiyalar, shuningdek, boshqa moliyaviy ko'rsatkichlar kabi boshqa omillarni hisobga olish kerak. Shuningdek, soliq to'lovchi faoliyat ko'rsatayotgan soha yoki tarmoqning o'ziga xos xususiyatlarini ham e'tibordan qochirmaslik darkor. To'langan soliq miqdori korxonada va tashkilotlarning moliyaviy ahvoli to'g'risidagi ma'lumotlarni ifodalashi mumkin, ammo yagona yoki hal qiluvchi manba bo'lib hisoblanmaydi. Soliq hisobi va tahlili ko'rsatkichlarining aniq bo'lishi hamda kerakli ma'lumotlarni aniqlashda bevosita berilgan ma'lumotlarda ko'ra bilvosita manbalarda olingan ma'lumotlarning ishonchlilik darajalari yuqori bo'ladi. Korxonada va tashkilotlar o'zlariga investorlarni jalb qilish hamda iqtisodiyotda mavjud bo'sh pul mablag'larini o'zlashtirish maqsadida investorlarga korxonada moliyaviy holati to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zgartirib taqdim etishi mumkin. Bu esa iqtisodiy faoliyatda bir qancha tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi. Bu muammolarni hal etish uchun korxonada moliyaviy hisobotlarning tuzilishi va soliq hisobotlarni tayyorlashni korxonada mavjud avtomatlashtirilgan buxgalteriya hisobi tizimiga uyg'un holda soliq hisobini ham avtomatlashtirish zarur.

Quyida korxonalarda soliq hisobini avtomatlashtirishda mavjud muammolarga to'xtalib o'tamiz. Korxonada soliq hisobini avtomatlashtirish jarayonida bir qancha muammolarga duch kelish mumkin:

1. **Integratsiyaning qiyinligi:** Soliq hisobining avtomatlashtirilgan tizimini joriy qilish boshqa tizimlar, masalan, buxgalteriya tizimlari, to'lov tizimlari va hisobot dasturlari bilan integratsiyalashni talab qiladi. Turli xil ma'lumotlar formatlari va uyg'unlik talablari tufayli bu dasturchilar uchun qiyinchilik tug'diradi. Natijada bu korxonaning nomoddiy aktivlarga qiladigan xarajatlarini yuqori bo'lishiga, moliyaviy aktivlarni yo'qotilishiga olib keladi.

2. To'liq bo'lmagan yoki ishonchsiz ma'lumotlar: Soliq hisobini avtomatlashtirishda korxonaning moliyaviy operatsiyalari to'g'risidagi aniq va ishonchli to'liq ma'lumotlarga ega bo'lish muhim ahamiyatga ega. Agar ma'lumotlar turli obyektiv va subyektiv omillar ta'sirida bazaga to'g'ri kiritilmasa yoki to'liq bo'lmasa, bu noto'g'ri soliq hisob-kitoblariga sabab bo'lishi mumkin. Soliq hisobini avtomatlashtirishda korxonada mavjud barcha hisob turlari va jarayonlarini avtomatlashgan bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

3. Qonunchilikdagi yangilanishlar: Soliq qonun hujjatlaridagi o'zgartirishlar va yangilanishlarning qisqa davr ichida, tez sodir bo'lishi ham soliq hisobini avtomatlashtirishdagi katta muammolardan biri hisoblanadi. Chunki, avtomatlashtirilgan hisob jarayoniga yangi o'zgarishlarni joriy etish yana mazkur dasturiy ta'minotni tushunadigan IT mutaxassislarni jalb etishni talab etadi. Bu dasturiy ta'minotni yangilash va xodimlarni o'qitish uchun korxonada yana qo'shimcha xarajatlar qilishiga to'g'ri keladi. Shu sababli korxonalarda soliq hisobini avtomatlashtirish masalalari hali-hanuz hal etilmay qolmoqda.

4. Malakali mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoj: Soliq hisobining avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish va qo'llab-quvvatlash soliq qonunchiligi sohasida bilimga ega va tegishli dasturiy ta'minot bilan ishlash qobiliyatiga ega bo'lgan mutaxassislarni talab qiladi. Malakali mutaxassislarning etishmasligi soliq hisobini muvaffaqiyatli avtomatlashtirishga to'sqinlik qilishi mumkin.

5. Ma'lumotlar xavfsizligi: Soliq hisobini avtomatlashtirishda ma'lumotlarni ruxsatsiz kirish yoki sizib chiqishdan himoya qilishni ta'minlash kerak. Bu ma'lumotlarni shifrlash va tizimga kirishni boshqarish kabi tegishli xavfsizlik choralarini talab qiladi.

Korxonalar soliq hisobini avtomatlashtirish buxgalteriya jarayonini sezilarli darajada soddalashtirishi va soliq hisob-kitoblarining aniqligini oshirishi mumkin. Yuzaga kelish ehtimolligi bo'lgan muammolarni minimallashtirish va buxgalteriya jarayonlarining samarali ishlashini ta'minlash uchun avtomatlashtirilgan tizimni joriy etishdan oldin ehtiyotkorlik bilan rejalashtirish va barcha jihatlarni ko'rib chiqish muhimdir

Yuqoridagi muammolarni hal etish uchun maqbul yechim sifatida oliy ta'lim muassasalari iqtisodiyot yo'nalishi talabalari o'quv rejalariga dasturlash tillarini o'rganish hamda qo'llash bo'yicha malakalarni shakllantiruvchi fanlarning qo'shilishi va korxonalarda aloxida shtat bilan ishlaydigan IT mutaxassislari uchun ish o'rinlari ochilishi taklif etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hicks, U. K. (1946). The Terminology of Tax Analysis. *The Economic Journal*, 56(221), 38–50. <https://doi.org/10.2307/2225619>
2. Акбаралиевич, Э.А., & Махамадзикировна, Г.М. (2022). Совершенствование Учета Собственного Капитала В Условиях Перехода На Мсфо. *Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, 3(12), 8-16.
3. Эрматов Акмалжон Акбаралиевич, & Муратов Азиз Акбарович. (2022). Вопросы Формирования Уставного Капитала Предприятия В Условиях Модернизации Экономики. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 11, 158–165.
4. Glenn P. Jenkins Chun-Yan Kuo Gangadhar P. Shukla. Tax analysis and revenue forecasting. *Issues and Techniques*. Harvard Institute for International Development Harvard University. June 2000. https://www.cri-world.com/publications/qed_dp_169.pdf